

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY



VOLUME 6
ISSUE 1 2026

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

6-JILD, 1-SON

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
ТОМ-6, НОМЕР-1

INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY
VOLUME-6, ISSUE-1



TOSHKENT - 2026



ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ | INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-1419-2026-1>

BOSH MUHARRIR: | ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР: | CHIEF EDITOR:

MIRZAYEV IBODULLA
f.f.d., professor (O'zbekiston)
МИРЗАЕВ ИБОДУЛЛА
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
MIRZAYEV IBODULLA
DSc, professor (Uzbekistan)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI: | ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА: | DEPUTY CHIEF EDITOR:

JABBOROV NURBOY
f.f.d., professor (O'zbekiston)
ЖАББОРОВ НУРБОЙ
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
JABBOROV NURBOY
DSc, professor (Uzbekistan)

TAHRIRIY HAY'ATI:

Muhiddinov Muslihiddin
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilorom Salohiy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Sodiqov Qosimjon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Binnatova Almaz Ulvi
f.f.d., professor (Ozarbayjon)
To'xliyev Boqijon
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shodmonov Nafas
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Asadov Maqsud
f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Yo'ldoshev Qozoqboy
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Jo'raqulov Uzoq
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Funda Toprak
f.f.d., professor (Turkiya)
Nabiulina Guzal
f.f.d., professor (Tatariston)
Yusupova Dilnavoz
DSc, professor (O'zbekiston)
Sirojiddin Xo'jaqulov
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Rahim Ibrohim
f.f.d., professor (Afg'oniston)
Turobov Abdurahim
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhitdinova Badia
DSc, professor (O'zbekiston)
Muhammadiyev Ahadjon
DSc, dotsent (O'zbekiston)
Suvonova Jumagul
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Mirzayev Rahmatilla
y.f.n., dotsent, huquqshunos (O'zbekiston)
Abdullayeva Albina
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Nurova Gulchehra
f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Sultanov Tulkin
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ubaydullayev Normuhammad
PhD, dotsent (O'zbekiston)
Ruzmanova Roxila
dots., mas'ul kotib (O'zbekiston)
Narziyeva Ma'mura
PhD, kotib (O'zbekiston)

ILMIY MASLAHAT KENGASHI

Xalmuradov Rustam
t.f.d., professor (O'zbekiston)
Sirojiddinov Shuhrat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Eshqobil Shukur
O'zbekiston Respublikasida
xizmat ko'rsatgan madaniyat
xodimi, shoir (O'zbekiston)
Rixsiyeva Gulchehra
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Benedek Peri
f.f.d., professor (Vengriya)
Olimov Karomatillo
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dadaboyev Hamidulla
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Shomusarov Shorustam
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dyu Rye Andre
f.f.d., professor (Fransiya)
Hamroyev Juma
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Aftondil Erkinov
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Hasanov Shavkat
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Umurova Go'zal
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Xalliyeva Gulnoz
f.f.d., professor (O'zbekiston)
Alim Labib
f.f.d., professor (Afg'oniston)

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Мухиддинов Муслихиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилором Салохий
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Содиков Косимжон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Биннатова Алмаз Улви
д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Тухлиев Бокижон
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шодмонов Нафас
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Асадов Максуд
д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Юлдашев Казакбай
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Журакулов Узок
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Фунда Топрак
д.ф.н., профессор (Турция)
Набиуллина Гузаль
д.ф.н., профессор (Татаристан)
Юсупова Дилнавоз
DSc, профессор (Узбекистан)
Сирожиддин Хужакулов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Рахим Иброхим
д.ф.н., профессор (Афганистан)
Туробов Абдурахим
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухигдинова Бадиа
DSc, профессор (Узбекистан)
Мухаммадиев Ахаджон
DSc, доцент (Узбекистан)
Сувонова Жумагул
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Мирзаев Рахматилла
к.ю.н., доцент (Узбекистан)
Абдуллаева Альбина
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурова Гулчехра
к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Султанов Тулкин
PhD, доцент (Узбекистан)
Убайдуллаев Нормухаммад
PhD, доцент (Узбекистан)
Рузманова Рохила
доц., отв. секретарь (Узбекистан)
Нарзиева Мамура
PhD, секретарь (Узбекистан)

НАУЧНО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Халмурадов Рустам
д.т.н., профессор (Узбекистан)
Сирожиддинов Шухрат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Эшқобил Шуккур
Заслуженный работник культуры Республики
Узбекистан, поэт (Узбекистан)
Рихсиева Гулчехра
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бенедек Пери
д.ф.н., профессор (Венгрия)
Олимов Кароматилло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дадабаев Хамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Шомусаров Шорустам
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дю Рье Андре
д.ф.н., профессор (Франция)
Хамроев Джума
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Афтондил Эркинов
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Хасанов Шавкат
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Умурова Гузал
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Халлиева Гулноз
д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Алим Лабиб
д.ф.н., профессор (Афганистан)

EDITORIAL BOARD:

Mukhiddinov Muslikhiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dilorom Salokhiy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Sodikov Kosimjon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Binnatova Almaz Ulvi
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Tukhliev Bokijon
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shodmonov Nafas
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Asadov Makhsud
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Yuldoshev Kozokboy
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Jurakulov Uzok
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Funda Toprak
DSc, prof. (Türkiye)

Nabiulina Guzal
DSc., prof. (Tatarstan)

Yusupova Dilnavoz
DSc, prof. (Uzbekistan)

Sirojiddin Khujakulov
DSc, prof. (Uzbekistan)

Rakhim Ibrokhim
DSc, prof. (Afghanistan)

Turobov Abdurakhim
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhitdinova Badia
DSc, prof. (Uzbekistan)

Mukhammadiyev Akhadjon
DSc, assoc. prof. (Uzbekistan)

Suvonova Jumagul
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Mirzayev Rahmatilla
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Abdullayeva Albina
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Nurova Gulchekhra
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Sultanov Tulkin
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ubaydullayev Normuhammad
PhD, assoc. prof. (Uzbekistan)

Ruzmanova Rokhila
Assoc. prof., Exec. Sec. (Uzbekistan)

Narziyeva Ma'mura
PhD, Secretary (Uzbekistan)

SCIENTIFIC ADVISORY BOARD:

Khalmuradov Rustam
Doc. of technic. scien., prof. (Uzbekistan)

Sirojiddinov Shukhrat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Eshqobil Shukur
Honored Worker of Culture of the Republic of Uzbekistan, poet (Uzbekistan)

Rikhsieva Gulchekhra
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Benedek Peri
Doc. of philol. scien., prof. (Hungary)

Olimov Karomatullo
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dadaboev Khamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shomusarov Shorustam
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dyu Rye Andre
Doc. of philol. scien., prof. (France)

Khamroev Juma
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Aftondil Erkinov
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khasanov Shavkat
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Umurova Guzal
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Khallieva Gulnoz
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Alim Labib
Doc. of philol. scien., prof. (Afghanistan)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

NAVOIY VA ADABIY TA'SIR MASALALARI

1. Афтондил ЭРКИНОВ АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЭРОН ҚЎЛЁЗМАЛАРИ.....	7
2. Sherxon QORAYEV O'ZBEK XONLIKLARIDA NAVOIYXONLIK TENDENSIYALARI (XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON FERUZNING "NAVOIYXONLIK" KECHALARI MISOLIDA)...	15
3. Nigora TO'XTAQULOVA ALISHER NAVOIY HIKOYALARINING FOLKLOR BILAN BOG'LANISHI ("MAJOLIS UN-NAFOIS" TAZKIRASI MISOLIDA).....	21
4. Jumagul SUVONOVA ALISHER NAVOIY VA ABDULLA ORIPOV IJODIDA TARBIYAVIY G'OYALAR UZVIYLIGI AN'ANA VA ZAMON TALQINIDA.....	30
5. Zulfiya RASULOVA UZBEKSKO-TADJIKSKIE LITERATURNYE SVYAZI XX VEKA.....	37
6. Sitara QODIRQULOVA ALISHER NAVOIY LIRIKASI TARJIMONI ALEKSANDR NAUMOV HAQIDA.....	43

NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI


1. Shavkat YANGIBOYEV "ILK DEVON" SHE'RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI.....	48
2. Shaxnoza KAXXAROVA ALISHER NAVOIYNING "HOLOTI SAYYID HASAN ARDASHER" MANOQIBIDA KOMIL INSON TALQINI.....	58
3. Sherxon QORAYEV ALISHER NAVOIY "OLIIY MAJLISLARI" VA NADIMLARI.....	70
4. Umida OTAYAROVA "XAMSA"LARNING SO'NGGI DOSTONLARIDA ILM-MA'RIFAT TALQINI.....	79
5. Dilfuza RAXMATOVA NAVOIY G'AZALLARIDA SOLETSIZMNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI.....	85
6. Dilafro'z TAMIKAYEVA ALISHER NAVOIY ASARLARI TILI VA UNI TADQIQ ETISH MASALALARI.....	92

NAVOIY VA TILSHUNOSLIK MASALALARI

1. Umida UBAYDULLAYEVA TILSHUNOSLIKDA LISONIY MANZARA KONSEPSIYASINING SHAKLLANISHI VA ILMIY TALQINLARI.....	99
2. Rustamjon JABBOROV BOBURIYLARNING TURKIY TIL VA ADABIYOT RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI.....	105

TAQRIZ, TAHLIL VA TARJIMA


1. Iroda ISHONXANOVA O'ZBEK ADABIYOTI YO'LBOSHCHISIGA BAG'ISHLANGAN NASHR.....	112
2. Roxila RUZMANOVA TURK DUNYOSINING YIRIK TADQIQOTCHISI.....	122

**NAVOIY NASRI VA NAZMI NAFOSATI****Shavkat YANGIBOYEV,**

Qarshi davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: savkat_yangiboyev10@gmail.com

ORCID: 0009-0009-9106-1311

“ILK DEVON” SHE’RLARINING ALISHER NAVOIYNING BOSHQA DEVONLARIGA JORIYLANISHI**For citation:** Yangiboyev Shavkat. THE INCORPORATION OF POEMS FROM "ILK DEVON" INTO OTHER DIVANS OF ALISHER NAVOI. Alisher Navoi. 2026, vol. 6, issue 1. <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19412119>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada “Ilk devon”idagi she’rlarning Alisher Navoiyning boshqa devonlariga ko‘chishi, ko‘chish jarayonidagi o‘ziga xoslik va turli xil matniy o‘zgarishlar masalalari yoritilgan. Ko‘zda tutilgan maqsadga erishish uchun “Ilk devon” “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”, “Badoyi‘u-l-bidoya”, “Navodiru-n-nihoya”, “G‘aroyibu-s-sig‘ar”, “Badoyi‘u-l-vasat”, “Favoyidu-l-kibar” (jami 6 ta) devonlari bilan taqqoslandi va birlamchi zaruriy xulosalar bayon qilindi.

Kalit so‘zlar: ko‘chish, joriylanish (tartiblanish), she’rlar tartibi, matniy o‘zgarishlar.**Шавкат ЯНГИБОЕВ,**

независимый исследователь

Каршинского государственного университета

E-mail: savkat_yangiboyev10@gmail.com

ORCID: 0009-0009-9106-1311

ВНЕДРЕНИЕ СТИХОТВОРЕНИЙ ИЗ «ИЛК ДЕВОНА» В ДРУГИЕ ДИВАНЫ АЛИШЕРА НАВОИ**АННОТАЦИЯ**

В данной статье освещаются вопросы перехода стихотворений из «Илк девона» («Первого дивана») в другие диваны Алишера Навои, особенности процесса этого перехода и различные текстовые изменения. Для достижения поставленной цели «Илк девон» был сопоставлен с диванами «Ок-кююли мухлислар девони», «Бадойи‘у-л-бидоя», «Наводиру-н-нихоя», «Гаройибу-с-сигар», «Бадойи‘у-л-васат» и «Фавойиду-л-кибар» (всего 6 диванов), на основе чего изложены первичные необходимые выводы.

Ключевые слова: переход, внедрение (систематизация), порядок стихотворений, текстовые изменения.

Shavkat YANGIBOYEV,Independent Researcher
of Karshi State University

E-mail: savkat_yangiboyev10@gmail.com

ORCID: 0009-0009-9106-1311

**THE TRANSFER OF POEMS FROM "ILK DEVON" INTO ALISHER NAVOI'S
OTHER DIVANS****ABSTRACT**

This article examines the transfer of poems from the "First Divan" into other divans of Alisher Navoi, as well as the specific features of this process and various textual changes that occurred during the transfer. In order to achieve the intended objective, the "First Divan" was compared with the following divans: "The Divan of the Aq Qoyunlu Devotees," "Badoyi'u-l-bidoya," "Navodiru-n-nihoya," "G'aroyibu-s-sig'ar," "Badoyi'u-l-vasat," and "Favoyidu-l-kibar" (a total of six divans). Based on this comparative analysis, preliminary and essential conclusions were drawn.

Keywords: transfer, incorporation (arrangement), order of poems, textual changes.

Alisher Navoiy she'rlarining ma'lum bir devonga joriylanishi (tartiblanishi) masalasi har doim navoiyshunos olimlarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelgan. H.Sulaymon, Y.Is'hoqov, A.Hayitmetov, A.Abdug'afurov, D.Salohiy, O.Madaliyeva kabi olimlarning fundamental tadqiqotlari ushbu fikrning dalilidir. Aynan "Ilk devon"dagi she'rlarning Alisher Navoiyning boshqa (rasmiy) devonlariga joriylanishi masalasi so'nggi yillarda tez-tez murojaat qilinadigan masalaga aylanib bormoqda.

Avvaliga N.Ramazonov MAT 20 tomligining oxirida "Ilk devon"da bo'lib shoirning boshqa rasmiy devonlariga kirmay qolgan yoki katta-kichik o'zgarishlar bilan kiritilgan misra va baytlar haqida ma'lumotni ilova qildi. Ilovada "bayt mazmuniga ta'sir qiladigan, she'r matniga o'zgartirish kiritadigan va muallif tomonidan ongli ravishda, biror maqsadni ko'zlab amalga oshirilgan tahrir tabiatini ochishga xizmat qiladigan o'zgarishlarga" qayd etilgan. Muallifning o'zi qayd etganidek, ilovada "barcha farqlarni qayd etish imkonsiz" bo'lgan [Рамазонов, 2003:377]. Olim keyinchalik bu masalaga ancha jiddiy yondashdi va ketma-ket "Alisher Navoiyda "tahrirni tahrir", "Yana "tahrirni tahrir" masalasi xususida" nomli maqolalarini e'lon qildi [Рамазонов, 2006:17-23]. Bu maqolalarda Y.Is'hoqov va D.Salohiyning xulosalari alohida e'tirof etilgan holda, "Ilk devon"dagi she'rlarning boshqa rasmiy devonlarda joriylanishidagi o'zgarishlarni "tahrirni tahrir", ya'ni "bir tahrirni ikkinchi marta tahrir qilish" deb qayd etdi. "Ilk devon"dan "Badoyi'u-l-bidoya" va "Navodiru-n-nihoya"ga o'zgarishlar bilan ko'chirilgan she'rlar birinchi tahrir, "Xazoyinu-l-maoniy" devonlaridagi o'zgarishlar esa tahrirni tahrir – ikkinchi tahrir hisoblanadi. Olimning kuzatishicha, Alisher Navoiy dastlabki ikki devonini tartiblayotganda "Ilk devon" she'rlariga birlamchi badiiy-stilistik va mazmuniy tuzatishlar qilgan [Исхоқов, 1965:140]. Keyinchalik "Xazoyinu-l-maoniy" jamlanayotganda esa o'sha dastlabki tuzatishlar yana qayta tanqidiy ko'rib chiqilgan.

A.Erkinovning "Navoiyning muxlislari tomonidan tuzilgan yana bir devoni"[Эркинов, 2012:8-16] maqolasi "Oqqo'yunli muxlislar devoni" va "Ilk devon"ni o'zaro taqqoslash yo'lidagi ilk qadam bo'ldi.

M.Imomnazarov "Uch devon muqoyasasi" [Имомназаров, 2018:12-17] nomli maqolasida "Ilk devon", "Badoyi'u-l-bidoya" va "G'aroyibu-s-sig'ar"dagi she'rlarning bir-biriga joriylanishi va janrlar xronologiyasi haqida so'z yuritdi. Tahlil doirasiga "Oqqo'yunli muxlislar devoni" [Imomnazarov, 2021:60-80] ham qamrab olindi. Keyinroq olim ushbu maqoladagi mulohazalarini kengaytirib "Olti devon muqoyasasi" maqolasini e'lon qildi. Muallif "Badoyi'u-l-bidoya"ning Toshkent, Parij, Tehron va Istanbul nusxalari "Ilk devon", "Navodiru-n-nihoya" devonlari o'zaro taqqosladi va jumladan, quyidagi zaruriy xulosalarni o'quvchiga taqdim etdi: bizgacha yetib kelgan Alisher Navoiy devonlarining ayrimlari shoirning tahriri ostida ko'chirilgan bo'lsa, ayrimlari kotibning mustaqil faoliyati natijasida yuzaga kelgan; ayni bir devon (masalan, "Badoyi'u-l-bidoya") ning turli nusxalari mundarijasiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi, bu farqlar sababini nusxadan

nusxa ko‘chilgani bilan izohlash mumkin; MAT 20 jildlikning oxiriga ilova qilingan “Rasmiy devonlarga kirmay qolgan she’rlar” sahifasida e’lon qilingan she’rlar yangi topilayotgan qo‘lyozmalarda mavjud ekani tobora ma’lum bo‘lib bormoqda.

D.Yusupovaning “Ilk devon”dan “Oqqoyunli muxlislar devoni”ga o‘tgan g‘azallar transformatsiyasi” [Юсупова, 2018:69-77] maqolasi shu yo‘ldagi yana bir jiddiy yutuq bo‘ldi. Maqolada har ikki devonda mavjud g‘azallar joriylanishi va transformatsiyasiga e’tibor qaratilgan va quyidagi muhim xulosalar bayon qilingan: 1. “Ilk devon”dan “Oqqoyunli muxlislar devoni”ga o‘tgan g‘azallar Navoiyning odatiy g‘azallaridan farq qilib, kichikroq hajmga ega: ularning eng ko‘pi “Oqqoyunli muxlislar devoni”da 9 bayt, eng kami 5 baytni tashkil qiladi. 2. “Oqqoyunli muxlislar devoni”ning tartib beruvchisi asosan ixlosmandlardan iborat bo‘lganligi uchun (ya’ni muallif Navoiyning o‘zi ushbu g‘azallarni bevosita tahrirdan o‘tkazmagani uchun) ularning matni ko‘p o‘rinlarda transformatsiyaga uchragan. 3. Navoiy g‘azallari “Ilk devon”dan “Oqqoyunli muxlislar devoni”ga o‘tgan vaqtda ko‘proq ularning maqta’dan avvalgi baytlari qisqartirilgan. Ularning mazmuniga e’tibor qaratsa, ular ko‘proq falsafiy mohiyat yoki ma’viza ruhiga ega. Bu holat Oqqoyunlilar saltanati muxlislarini ko‘proq yoshlar tashkil qilgan, degan taxminga olib keladi. 4. G‘azallarni ko‘chirgan xattot ularning aksariyatini yoddan yozgan va natijada ko‘p o‘rinda baytlardagi misralar o‘rni almashishiga yo‘l qo‘ygan.

Tadqiqotchi R.Jabborovning “Alisher Navoiy “Oqqoyunli muxlislar devoni” va uning davr adabiy muhitida tutgan o‘rni” mavzusidagi dissertatsion tadqiqotida mazkur qo‘lyozma va Navoiy devonlarining boshqa qo‘lyozmalari o‘rtasidagi matniy tafovutlar, til va uslubiy o‘ziga xosligi o‘sha davrda mavjud bo‘lgan g‘arbiy va sharqiy turkiy tillar orasidagi tafovutlar xususiyatlaridan kelib chiqqan holda aniq misollar yordamida dalillangan bo‘lib, tarkibi, undagi janrlar xilma-xilligi, she’rlarning yaratilish davri va ularning boshqa devonlardagi o‘rni, mazmuni ilmiy nuqtayi nazardan tasnif va tahlil qilingan, ayrim g‘azallarining yoshi, yaratilish vaqti, so‘zlarning o‘zgartirilishi, baytlarning tushirib qoldirilishi va o‘rin almashtirilishi sabablari muhim ilmiy xulosalar asosida aniqlangan. Shuningdek, olim devonni boshqa qo‘lyozmalar va nashrlar matni bilan qiyoslash natijasida “Oqqoyunli muxlislar devoni”da mavjud, ammo keyin ko‘chirilgan qo‘lyozmalarda uchramaydigan, shu paytga qadar ilmiy jamoatchilik va adabiyot ixlosmandlari uchun noma’lum bo‘lgan bir qancha yangi g‘azal va baytlar aniqlagan, ularning keyingi qo‘lyozmalarda uchramaslik sabablarini ilmiy mulohazalar bilan dalillashga harakat qilgan [Джабборов, 2020: 57].

Biz ushbu maqolada “Ilk devon”dagi she’rlarning “Oqqoyunli muxlislar devoni”, “Badoyi’u-l-bidoya”, “Navodiru-n-nihoya”, “G‘aroyibu-s-sig‘ar”, “Badoyi’u-l-vasat” va “Favoyidu-l-kibar” devonlariga joriylanishiga alohida e’tibor qaratdik. Buni bir jadvalda quyidagicha aks ettirish mumkin (1-jadval):

“Ilk devon”dagi she’rlarning Alisher Navoiyning boshqa devonlariga joriylanishi

1-jadval.

1	“Ilk devon”	“Oqqoyunli muxlislar devoni”
	4, 7, 10, 14, 30, 39, 51, 52, 53, 54, 55, 59, 62, 64, 65, 68, 87, 89, 138, 213, 214, 215, 217, 218, 220, 221, 222, 251, 252, 254, 255, 256, 257, 258, 275, 306, 307, 315, 316, 317, 318, 319, 320, 321, 322.	13, 20, 12, 9, 11, 5, 28, 25, 34, 32, 30, 27, 26, 29, 31, 33, 35, 36, 78, 103, 131, 108, 133, 109, 110, 111, 112, 116, 119, 121, 123, 125, 128, 130, 127, 135, 154, 159, 163, 164, 165, 167, 166, 169, 170.
Jami: 45 ta g‘azal		
2	“Ilk devon”	“Badoyi’u-l-bidoya”
	2, 3, 4, 5, 7, 10, 14, 19, 21, 28, 30, 31, 32, 34, 39, 41, 47, 48, 50, 51, 52, 53, 54, 55, 59, 62, 63, 64, 65, 66, 67, 68, 69, 70, 77, 80, 87, 88, 89, 90, 91, 118, 124, 125, 131, 132, 138, 139, 140, 143, 164, 198, 208, 209, 212, 213, 214, 215, 217, 218, 219, 220, 221, 222, 223, 230, 238, 239, 240, 241, 242, 243, 244, 245, 246, 247, 248, 249, 250, 251, 252, 253, 255, 256, 257, 258,	7, 9, 23, 24, 45, 22, 32, 42, 20, 11, 44, 48, 41, 51, 43, 12, 46, 52, 53, 55, 56, 60, 61, 68, 65, 63, 64, 66, 69, 73, 71, 70, 75, 74, 77, 58, 81, 83, 84, 85, 86, 211, 192, 213, 183, 204, 186, 208, 122, 205, 284, 334, 348, 353, 354, 357, 362, 364, 367, 369, 370, 372, 373, 375, 394, 345, 392, 398, 406, 409, 410, 411, 412, 413, 414, 415, 418, 420, 423, 426, 430, 434, 437, 439, 441, 444, 446, 448, 416, 428,

259, 260, 264, 275, 276, 287, 292, 300, 301, 303, 304, 305, 306, 307, 308, 309, 316, 317, 318, 319, 320, 321, 322, 323, 329, 335, 337, 339, 353, 355, 367, 372, 373, 376, 379.	443, 501, 496, 483, 451, 456, 460, 462, 466, 468, 493, 494, 538, 542, 543, 544, 545, 546, 549, 550, 601, 617, 611, 661, 674, 659, 696, 715, 693, 682, 725.	
Jami: 120 ta g'azal		
3	“Ilk devon”	“Navodiru-n-nihoya”
15, 18, 19, 21, 29, 32, 35, 38, 40, 42, 44, 49, 56, 61, 71, 73, 74, 75, 76, 78, 81, 92, 103, 108, 114, 116, 117, 120, 123, 133, 143, 153, 160, 161, 164, 165, 166, 177, 187, 189, 195, 196, 197, 198, 202, 205, 225, 228, 232, 233, 234, 236, 262, 269, 272, 278, 285, 287, 288, 294, 296, 298, 299, 300, 310, 311, 312, 326, 329, 331, 333, 335, 336, 337, 338, 339, 340, 342, 344, 347, 349, 350, 351, 353, 354, 355, 358, 365, 366, 367, 368, 369, 370, 371, 373, 374, 375, 376, 378, 379, 381, 382, 383.	34, 19, 25, 27, 40, 43, 44, 729, 16, 37, 12, 8, 50, 63, 52, 71, 76, 78, 67, 80, 56, 100, 130, 142, 143, 190, 171, 164, 209, 167, 176, 294, 297, 293, 322, 325, 337, 354, 365, 375, 386, 392, 395, 398, 391, 401, 419, 431, 444, 448, 423, 460, 494, 479, 485, 491, 492, 498, 514, 504, 505, 517, 520, 537, 542, 548, 554, 601, 596, 618, 660, 648, 652, 654, 716, 701, 723, 711, 720, 728, 685, 682, 705, 668, 698, 700, 727, 767, 773, 785, 802, 807, 812, 819, 804, 809, 834, 836, 845, 736, 735, 859, 755.	
Jami: 106 ta g'azal		
4	“Ilk devon”	“G'aroyibu-s-sig'ar”
1, 2, 3, 4, 5, 37, 38, 39, 40, 41, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50, 51, 52, 53, 54, 55, 56, 57, 58, 59, 60, 61, 62, 63, 64, 65, 66, 67, 68, 69, 70, 71, 72, 73, 74, 75, 76, 77, 78, 87, 88, 89, 90, 91, 207, 208, 209, 210, 211, 212, 213, 214, 215, 216, 217, 218, 219, 220, 221, 222, 223, 224, 239, 240, 241, 242, 243, 244, 245, 246, 247, 248, 249, 250, 251, 252, 253, 254, 255, 256, 257, 258, 259, 260, 261, 262, 300, 301, 302, 303, 304, 305, 306, 307, 308, 309, 310, 311, 314, 315, 316, 317, 318, 319, 320, 321, 322.	5, 7, 8, 9, 10, 26, 27, 29, 30, 31, 32, 33, 34, 35, 36, 37, 38, 39, 40, 31, 42, 43, 44, 45, 46, 47, 48, 49, 50, 51, 52, 53, 54, 55, 56, 57, 58, 59, 60, 61, 62, 63, 64, 65, 66, 67, 68, 72, 73, 74, 75, 76, 340, 342, 346, 341, 345, 347, 348, 349, 350, 343, 352, 353, 354, 355, 356, 357, 360, 362, 364, 367, 368, 369, 370, 371, 372, 373, 375, 376, 377, 378, 379, 381, 382, 383, 384, 385, 386, 387, 388, 390, 391, 392, 393, 396, 397, 399, 400, 402, 403, 418, 419, 432, 434, 437, 464, 465, 469, 470, 471, 472, 473, 476, 477.	
Jami: 115 ta g'azal		
5	“Ilk devon”	“Badoyiu'-l-vasat”
33, 34, 35, 36, 92, 93, 96, 103, 105, 115, 116, 117, 118, 126, 127, 128, 129, 130, 131, 132, 133, 134, 140, 141, 142, 143, 144, 151, 152, 158, 159, 160, 161, 162, 163, 164, 165, 166, 167, 169, 175, 185, 186, 187, 188, 189, 191, 195, 199, 200, 201, 264, 265, 266, 267, 268, 269, 270, 271, 272, 273, 274, 275, 276, 274, 275, 276, 277, 278, 279, 283, 284, 285, 294, 324, 325, 326, 327, 328, 329, 330, 331, 335, 336, 337, 338, 339, 340, 347, 348, 349, 350, 351, 352, 354, 355, 356, 357, 358, 359, 360, 361, 362, 363, 364, 365, 366, 367, 368, 369, 370, 371, 372, 373, 374, 375, 376, 377, 378, 379, 380, 381, 382, 383, 384, 385, 386, 387, 388, 389, 390, 391, 392.	22, 23, 24, 25, 72, 88, 94, 111, 117, 131, 145, 186, 194, 148, 151, 158, 160, 168, 177, 169, 181, 193, 132, 133, 134, 135, 137, 227, 230, 225, 226, 240, 239, 250, 252, 263, 264, 268, 270, 271, 275, 278, 290, 292, 293, 295, 301, 302, 308, 312, 314, 321, 364, 365, 366, 367, 369, 370, 373, 377, 379, 378, 381, 383, 385, 386, 389, 390, 387, 388, 392, 394, 447, 450, 455, 462, 463, 473, 475, 485, 510, 511, 512, 542, 547, 555, 530, 536, 537, 540, 541, 544, 545, 546, 553, 554, 556, 566, 568, 569, 571, 587, 588, 589, 598, 601, 604, 605, 607, 608, 614, 615, 617, 618, 623, 625, 575, 576, 578, 580, 584, 603, 634, 635, 639, 642, 644, 645, 647, 648	
Jami: 130 ta g'azal		
6	“Ilk devon”	“Favoyidu-l-kibar”
6, 7, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29, 30, 31, 32, 79, 80, 81, 82, 83, 84, 85, 86, 94, 95, 97, 98, 99,	1, 2, 6, 8, 9, 10, 11, 12, 13, 14, 16, 17, 18, 20, 22, 21, 23, 24, 25, 28, 30, 32, 34, 35, 36, 37, 38, 42, 43, 44, 45, 47, 49, 50, 52, 90, 97, 104, 105, 106,	

100, 101, 102, 104, 106, 107, 108, 109, 110, 111, 112, 113, 114, 119, 120, 121, 122, 123, 124, 125, 135, 136, 137, 138, 139, 145, 146, 147, 148, 149, 150, 153, 154, 155, 156, 157, 170, 171, 172, 173, 174, 176, 177, 178, 179, 180, 181, 182, 183, 184, 190, 192, 193, 194, 196, 197, 198, 202, 203, 204, 205, 206, 225, 226, 227, 228, 229, 230, 232, 233, 234, 235, 236, 237, 238, 239, 280, 281, 282, 286, 287, 288, 289, 290, 291, 292, 293, 295, 296, 297, 298, 299, 300, 313, 314, 332, 333, 334, 341, 342, 343, 344, 345, 346, 353.	108, 109, 110, 117, 118, 119, 120, 121, 122, 123, 124, 125, 126, 143, 149, 152, 164, 176, 191, 194, 141, 158, 171, 188, 193, 201, 207, 208, 200, 203, 221, 223, 224, 227, 232, 225, 271, 272, 275, 274, 277, 279, 283, 282, 284, 285, 286, 292, 290, 291, 298, 299, 302, 304, 316, 317, 318, 315, 313, 314, 319, 323, 330, 332, 334, 335, 337, 339, 346, 347, 348, 349, 354, 358, 359, 360, 370, 373, 375, 386, 402, 411, 416, 418, 419, 420, 432, 399, 405, 412, 413, 414, 429, 404, 415, 512, 515, 516, 546, 550, 551, 554, 565, 568, 522,
Jami: 145 ta g‘azal	

Ushbu jadval ma’lumotlari “Ilk devon”, shuningdek, boshqa devonlardagi she’rlarning tartiblanish mezonlari, ba’zi she’rlarning yaratilish tarixi, muallif yoki kotibning devonga munosabati, hattoki “Ilk devon”ning dastlabki devon ekani yoki emasligi singari masalalarga oydinlik kiritishga yordam beradi.

Quyidagilarga e’tibor qaratamiz:

1. 120 g‘azal “Badoyi’u-l-bidoya”ga, 106 g‘azal “Navodiru-n-nihoya”ga kiritilgani holida 164 g‘azal dastlabki ikki rasmiy devonda uchramaydi. Ham “Badoyi’u-l-bidoya”dan, ham “Navodiru-n-nihoya”dan o‘rin olgan g‘azallar soni – 18 ta. Bu ma’lumot mazkur 164 ta she’r “Badoyi’u-l-bidoya”, “Navodiru-n-nihoya” tuzilgan vaqtdan keyin yozilgan, degan xulosani bermaydi. Aksincha, 25 yoshli shoirning she’rlari adadi ko‘p (hozircha aniq miqdori noma’lum), Sultonali Mashhadiy oldida qaysi she’rni tanlash imkoniyati mavjud bo‘lganiga dalildir.

2. “Ilk devon”dan “Badoyi’u-l-bidoya”ga ko‘chgan 120 g‘azaldan 71 tasi keyinchalik “G‘royibu-s-sig‘ar”ga, 20 tasi “Badoyi’u-l-vasat”ga, 23 tasi “Favoyidu-l-kibar”; “Navodiru-n-nihoya”ga ko‘chgan 106 g‘azaldan 16 tasi “G‘aroyibu-s-sig‘ar”ga, 52 tasi “Badoyi’u-l-vasat”ga, 35 tasi “Favoyidu-l-kibar”ga joriylangan. Albatta, bunday taqsimot qanday shartlar asosida yuzaga kelgani hozircha fanga ma’lum emas. Lekin Alisher Navoiy o‘z rasmiy devonlariga she’rlarni tanlash jarayonida “Ilk devon”dagi taqsimlash usulidan ham foydalangan, degan faraz paydo bo‘ladi. Bu faraz tasdig‘i uchun, avvalo, dastlabki ikki devondagi g‘azallar tartibiga e’tibor qaratamiz: g‘azallar tartiblanish ketma-ketligi bo‘yicha oldin “Badoyi’u-l-bidoya”da, keyin “Navodiru-n-nihoya”da uchraydi. Misol uchun: №№ 238-253 g‘azallar “Badoyi’u-l-bidoya”ga, №№ 368-371 g‘azallar “Navodiru-n-nihoya”ga kiritilgan. Mazkur usul, ayniqsa, “Xazoyinu-l-maoniy” devonlarida yana-da aniq seziladi. “Ilk devon”dagi №№1-5 g‘azallar “G‘aroyibu-s-sig‘ar”ga ko‘chgan bo‘lsa, №№ 6-32 (jami 27 ta) g‘azallar “Favoyidu-l-kibar”ga, №№ 33-36 (jami 4 ta) “Badoyi’u-l-vasat”ga o‘tgan. Tartib shu tarzda davom etadi; №№ 37-78 (jami 42 ta) g‘azal yana “G‘aroyibu-s-sig‘ar”ga, №№ 79-86 (jami 8 ta) g‘azal “Favoyidu-l-kibar”ga kiritilgan va h.k.

183 ta g‘azal “Ilk devon” va boshqa yana bir rasmiy devonga, 187 ta g‘azal “Ilk devon” va boshqa yana ikki rasmiy devonga, 18 ta g‘azal “Ilk devon” va boshqa yana uch rasmiy devonga kiritilgan.

“Ilk devon”dagi g‘azallarning boshqa devonlarga joriylanishi haqida so‘z borar ekan, she’rlar hajmida sezilarli tafovut borligini alohida qayd etish joiz. “Ilk devon” va “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dagi 45 ta g‘azalning baytlar miqdori 332 / 248 bayt nisbatini tashkil etadi. Oradagi farq – 84 bayt. “Ilk devon”dagi №№ 7, 39, 53, 54, 55, 64, 65, 87, 275 g‘azallar hajmi mos ravishda “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dagi 20, 5, 34, 32, 30, 29, 31, 35, 127 g‘azallar hajmiga nisbatan 1 baytga; №№ 4, 10, 30, 51, 59, 138, 213, 214, 215, 218, 220, 221, 222, 251, 254, 255, 256, 257, 307, 315, 318, 319, 320, 322 g‘azallar hajmi №№ 13, 12, 11, 28, 27, 78, 103, 131, 108, 109, 110, 111, 112, 116, 121, 123, 125, 128, 154, 159, 165, 167, 166, 170 g‘azallar hajmiga nisbatan 2 baytga ko‘p farq qiladi. Va aksincha, “Oqqo‘yunli muxlislar devoni”dagi №№ 119, 135 g‘azallar hajmi mos ravishda “Ilk devon”dagi №№ 252, 306 g‘azallar hajmiga nisbatan 1 baytga ko‘p farq qiladi.

“Ilk devon” va “Badoyi’u-l-bidoya”dagi 120 ta g‘azalning baytlar miqdori 891 / 935 bayt nisbatini tashkil etadi. Oradagi farq – 44 bayt. “Ilk devon”dagi №№ 62, 64, 87, 118, 134, 139, 164, 198, 212, 241, 242, 245, 247, 249, 253, 264, 276, 292, 300, 301, 318, 329, 335, 372 g‘azallar hajmi mos ravishda “Badoyi’u-l-bidoya”dagi 63, 66, 81, 211, 204, 208, 284, 334, 354, 409, 410, 413, 415, 420, 434, 416, 443, 496, 483, 451, 543, 601, 617, 715 g‘azallar hajmiga nisbatan 1 baytga; №№ 67, 124, 125, 239, 287, 307, 353 g‘azallar hajmi №№ 71, 192, 213, 398, 501, 468, 674 g‘azallar hajmiga nisbatan 2 baytga, №№ 70, 379 g‘azallar hajmi №№ 74, 725 g‘azallar hajmiga nisbatan 3 baytga kam farq qiladi. Ayni paytda “Ilk devon”dagi № 238 g‘azal “Badoyi’u-l-bidoya”dagi № 392 g‘azal hajmiga nisbatan 2 bayt ko‘p.

“Ilk devon” va “Navodiru-n-nihoya”dagi 106 ta g‘azalning baytlar miqdori 720 / 765 bayt nisbatini tashkil etadi. Oradagi farq – 45 bayt. “Ilk devon”dagi №№ 49, 74, 78, 153, 160, 164, 177, 197, 198, 225, 228, 294, 300, 326, 329, 335, 338, 354, 366, 378, 381, 383 g‘azallar hajmi mos ravishda “Navodiru-n-nihoya”dagi №№ 8, 76, 80, 294, 297, 322, 354, 395, 398, 419, 431, 504, 537, 601, 596, 648, 716, 698, 773, 845, 735, 755 g‘azallar hajmiga nisbatan 1 baytga; №№ 56, 103, 166, 202, 287, 336, 353, 369, 382 g‘azallar hajmi №№ 50, 130, 337, 391, 498, 652, 668, 807, 859 g‘azallar hajmiga nisbatan 2 baytga, №№ 195, 379 g‘azallar hajmi №№ 386, 736 g‘azallar hajmiga nisbatan 3 baytga kam farq qiladi. Shuningdek, “Ilk devon”dagi № 262 g‘azal hajmi “Navodiru-n-nihoya”dagi № 494 g‘azal hajmiga nisbatan 1 bayt ko‘p.

“Ilk devon” va “G‘aroyibu-s-sig‘ar”dagi 115 ta g‘azalning baytlar miqdori 852 / 875 bayt nisbatini tashkil etadi. Oradagi farq – 23 bayt. “Ilk devon”dagi №№ 62, 64, 74, 78, 212, 240, 241, 244, 246, 248, 252, 300, 301, 306, 317 g‘azallar hajmi mos ravishda “G‘aroyibu-s-sig‘ar”dagi 52, 54, 64, 68, 347, 367, 368, 371, 373, 376, 381, 393, 396, 403, 470 g‘azallar hajmiga nisbatan 1 baytga; №№ 56, 67, 70, 72, 74, 211 g‘azallar hajmi №№ 46, 57, 60, 62, 64, 345 g‘azallar hajmiga nisbatan 2 baytga kam farq qiladi.

“Ilk devon” va “Badoyi’u-l-vasat”dagi 130 ta g‘azalning baytlar miqdori 918 / 995 bayt nisbatini tashkil etadi. Oradagi farq – 77 bayt. “Ilk devon”dagi №№ 105, 115, 118, 130, 132, 134, 159, 160, 162, 164, 168, 169, 185, 199, 264, 276, 283, 284, 294, 326, 327, 329, 335, 338, 348, 352, 354, 356, 359, 364, 366, 368, 372, 378, 379, 381, 383, 384 g‘azallar hajmi mos ravishda “Badoyi’u-l-vasat”dagi №№ 117, 131, 194, 168, 169, 193, 226, 240, 250, 263, 271, 275, 290, 312, 364, 385, 387, 388, 394, 455, 462, 473, 510, 542, 536, 544, 545, 553, 566, 588, 598, 604, 614, 575, 576, 580, 603, 634 g‘azallar hajmiga nisbatan 1 baytga; №№ 103, 127, 188, 270, 275, 324, 325, 336, 361, 362, 369, 382, 391 g‘azallar hajmi №№ 111, 151, 295, 373, 383, 447, 450, 511, 569, 571, 605, 584, 648 g‘azallar hajmiga nisbatan 2 baytga, №№ 96, 195, 380 g‘azallar hajmi №№ 94, 308, 578 g‘azallar hajmiga nisbatan 3 baytga, № 144 g‘azal hajmi № 137 g‘azal hajmidan 4 baytga kam farq qiladi.

“Ilk devon” va “Favoyidu-l-kibar”dagi 145 ta g‘azalning baytlar miqdori 1068 / 1131 bayt nisbatini tashkil etadi. Oradagi farq – 63 bayt. “Ilk devon”dagi №№ 11, 22, 24, 26, 79, 94, 107, 112, 121, 124, 125, 136, 139, 149, 153, 155, 156, 157, 171, 177, 181, 197, 198, 225, 227, 228, 235, 237, 281, 286, 289, 292, 293, 300, 314, 346 g‘azallar hajmi mos ravishda “Favoyidu-l-kibar”dagi 10, 23, 25, 30, 42, 90, 119, 124, 152, 191, 194, 158, 193, 203, 223, 227, 232, 225, 272, 283, 286, 317, 318, 330, 334, 335, 349, 358, 373, 386, 416, 420, 432, 429, 415, 568 g‘azallar hajmiga nisbatan 1 baytga; №№ 95, 146, 148, 182, 183, 202, 229, 239, 287, 334, 341, 353 g‘azallar hajmi №№ 97, 207, 200, 292, 290, 315, 337, 360, 402, 516, 546, 522 g‘azallar hajmiga nisbatan 2 baytga, №№ 6, 298 g‘azallar hajmi №№ 1, 190, g‘azallar hajmiga nisbatan 3 baytga kam farq qiladi. Shu bilan birga “Ilk devon”dagi № 25 g‘azal hajmi “Favoyidu-l-kibar”dagi № 28 g‘azal hajmiga nisbatan 1 bayt, № 203 g‘azal hajmi № 313 g‘azal hajmiga nisbatan 2 bayt ko‘p.

Bunday qisqartirishlar sababi nima ekani hozircha fanga ma’lum emas. A.Erkinov “Oqqo’yunli muxlislar devoni”dagi shunday qisqartirishlar haqida so‘z yuritib, turkiyalik olim Tanju Seyhanning Oqqo’yunlilar va usmoniylar davri adabiyoti an’alariga ko‘ra, g‘azallar hajmi 7 baytdan oshmagani, shu sababdan kotiblar hajman katta g‘azallarni qisqartirib ko‘chirishgani haqida fikr yuritganini ma’lum qiladi [Erkinov, 2020: 11]. D.Yusupova bu masalaga ancha batafsil yondashgan bo‘lsa-da, aniq yechim topilmagan. Olima “Oqqo’yunli muxlislar devoni”da ko‘proq maqta’dan oldingi bayt – begona baytlarning qisqartirilganiga e’tibor qaratadi va ularning “olib

tashlanishi yoki tushirib qoldirilishi g‘azalning umumiy zohiriy mazmuniga ta‘sir ko‘rsatmagani uchun”, ishqiy mavzudagi g‘azaldagi “ma‘rifatomuz baytdan ko‘ra g‘azalning umumiy mazmuni ahamiyatliroq bo‘lgani sababli kotib (yoki ba‘zan muxlislar) ularni qisqartirgan bo‘lishi mumkin”[Юсупова, 2018:70-71]. Adabiyotshunos N.Ramazonov tushirib qoldirilgan baytlarning rasmiy devondagi shakliga e‘tibor qaratadi va uning 1- yoki 2- misrasi “Ilk devon”da borligi holatlarini sezadi. Baytlarning qisqartirilishi sabablaridan birini topganday bo‘ladi. U, jumladan, “Ilk devon”dagi № 64 g‘azal haqida shunday yozadi: “BB (“Badoyi‘u-l bidoya”) va G‘S (“G‘aroyibu-s-sig‘ar”)dagi 4-bayt ID (“Ilk devon”)da yo‘q, biroq uning 2-misrasi 3-baytning 2-misrasi sifatida berilgan. Shunga asosan, ushbu g‘azal ilk variantda 9 baytli bo‘lgan deb taxmin qilish mumkin”[Рамазонов,2003: 386]. Bu taxmin “Ilk devon”dagi barcha qisqartirilgan baytlarga taalluqli emas, albatta.

Biz har uch olimning fikriga qo‘shilgan holda buning sabablarini Alisher Navoiyning ayrim ishoralaridan qidirish to‘g‘riroq bo‘ladi, degan fikrdamiz. Shoir qit‘alaridan birida she‘lari 7 baytdan kam emas, 9, 11, hatto 13 baytgacha ekani haqida yozgan edi:

Navoiy she‘ri to‘qquz baytu, o‘n bir bayt, o‘n uch bayt

Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin.

Bukim albatta yetti baytdin o‘ksuk emas, ya‘ni

Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin

Shoir ijodining ilk davrlarida g‘azallarining hajmiga qat‘iy e‘tibor qaratmagan, ya‘ni she‘r yozilgan vaqtida tabiiy necha bayt bo‘lib shakllangan bo‘lsa (masalan, 5, 6, 7 yoki 9), shunday hajmda qoldirilgan. Keyinchalik, bizningcha, “Badoyi‘u-l-bidoya” tartiblanayotgan vaqtda qit‘ada ta‘kidlangan shartlar yuzaga kelgan va shoir o‘zi lozim topgan she‘rlarga 1, 2, hatto 3 baytgacha qo‘shgan bo‘lishi mumkin. Bu fikrni ham, tabiiyki, devondagi barcha shunday she‘rlarga nisbatan tatbiq qilib bo‘lmaydi.

“Ilk devon” g‘azallarining boshqa rasmiy devonlarga joriylanishi o‘rganilar ekan, shu o‘rinda kotibning diqqatsizligi bilan yuzaga kelgan yana bir jiddiy matniy xato turini qayd etish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Kotib 100 dan ortiq o‘rinda misra yoki baytni rasmiy devonlardagi o‘rnidan boshqa joyga ko‘chirgan. Masalan, shoirning “Kishikim istasakim, yetmagay malolat anga” misrasi bilan boshlanadigan g‘azali “Ilk devon”da № 9 (5a-5b) va “Favoyidu-l-kibar”da № 8 tarib raqamda kelgan. G‘azalning “Ilk devon”dagi 5-, 6-, 8- va 9- baytlari mos ravishda “Favoyidu-l-kibar”da 6-, 5-, 9- va 8- bayt tartibida berilgan.

Bayt	Baytning IDdagi tartibi	Baytning FKdagi tartibi
Demaki, ilmda kelmish malakdin ul afzun Ki, devdin dog‘i afzun erur jaholat anga.	5	6
Bilurki, ro‘zi anga haq berur, o‘zidekning Bo‘lur chu bandasi, bois erur razolat anga.	6	5
Bu zulmlarki, ul aylar, ne aylagay nogah Aning hisobida haq aylasa adolat anga.	8	9
Chu bo‘ldi nutq ila mumtoz barcha hayvondin, Ham oxir ul hayvondin erur maqolat anga.	9	8

Ma‘lumki, “Ilk devon” tarkibida 1 ta mustazod (137a-b) va 1 ta muxammas (137b-138a) bor. Mustazod har ikkisi ham keyinchalik “Badoyi‘u-l-bidoya” (№ 3) va “Badoyi‘u-l-vasat” (453-bet) devonlariga kiritilgan. “Ne vo‘smavu ne kesmadur ul zulfi sumansoy, ne g‘amzayi jodu” misrasi bilan boshlanadigan ushbu mustazod “Ilk devon”dagi ba‘zi bir imloviy xatolarni hisobga olmaganda, har uchala devonda bir xil joriylangan.

Muxammas “Oqqo‘yunli muxlislar devoni” (№ 1), “Badoyi‘u-l-bidoya” (№ 1) va “Badoyi‘u-l-vasat” (№ 1) devonlariga joriylangan bo‘lib, Lutfiyning “Laylatul me‘rojning sharhi sochi tobindadur” [Лутфий, 1987:64] misrasi bilan boshlanadigan g‘azaliga bog‘langan. Lutfiyning g‘azali

va mazkur taxmis matni o‘zaro, shuningdek, “Badoyi’u-l-bidoya” va “Badoyi’u-l-vasat”dagi matn bilan o‘zaro taqqoslanganda bir necha farq aniqlandi:

1. Lutfiy g‘azali 7 baytdan iborat, uning 5: 1-, 2-, 4-, 5- va 7- baytlariga muxamms bog‘langan.

2. G‘azalning 2-bayti (Xizrning ayni yoshunmish ko‘kdin inmas ham Masih, Netsun ul, mo‘jiz bu dam yoquti serobindadur) muxammasda 3-band bo‘lib, 4- bayti (Ko‘p yugurdi ravzada aynan tusammo salsabil, Topmadi ul choshnikim, shakkari nobindadur) 2-band bo‘lib kelgan. Muxammasning bandlar ketma-ketligi har uchta devonda bir xil. Bundan anglanadiki, Alisher Navoiy qo‘lida Lutfiy g‘azalining aynan shunday varianti bo‘lgan.

Muxammasning mazkur devonlar aro joriylanishi jarayonidagi farqlari esa quyidagicha:

1. 2-bandning birinchi misrasi

“Ilk devon” va “Badoyi’u-l-vasat”da:

Ul qadi to‘bidin ortuq yuzi rizvondin jamil;

“Oqqo‘yunli muxlislar devoni” va “Badoyi’u-l-bidoya”da:

Ey qadi to‘bidin ortuq yuzi rizvondin jamil.

2. 3-bandning 3-misrasi

“Ilk devon”da:

La‘lidin tokim takallum **ayladi** sho‘xi malih;

“Oqqo‘yunli muxlislar devoni”, “Badoyi’u-l-bidoya” va “Badoyi’u-l-vasat”da:

La‘lidin tokim takallum **qildi ul** sho‘xi malih.

Ul va ey, ayladi va qildi ul so‘zlari misra mazmuniga ta‘sir etmaydigan o‘zgarishlardir.

3. 4-bandning 3-misrasi

“Ilk devon”da:

Farrux ermas **orazidek ahd-u** bahor;

“Oqqo‘yunli muxlislar devoni”, “Badoyi’u-l-bidoya” va “Badoyi’u-l-vasat”da:

Farrux ermas **orazi navro‘zidek iyd-u** bahor.

Misra “Ilk devon”da xato bilan ko‘chirilgani, ya‘ni bir so‘z (navro‘zi) qisqartirilgani, iyd so‘zining ahd deb noto‘g‘ri o‘zgartirilgani uning mazmunidan anglashilib turibdi.

4. 5-bandning 1-misrasi

“Ilk devon”da:

Har **gadoning ilkida** bo‘lsa eski to‘n yo choki jayb;

“Oqqo‘yunli muxlislar devoni”, “Badoyi’u-l-bidoya” va “Badoyi’u-l-vasat”da:

Har **gado egnida** bo‘lsa eski to‘n yo choki jayb.

Bir qarashda ilkida yoki egnida so‘zlaridan qaysi birining ishlatilishi shoir niyatiga ta‘sir qilmaydiganday tuyuladi. Lekin jayb (yoqa) so‘zi egnida so‘zining ishlatilishi mantiqan to‘g‘ri bo‘lishini taqozo qiladi.

“Ilk devon”da g‘azallardan keyin hajman katta miqdorni ruboiylar tashkil qiladi. Devondan shoirning 41 ta ruboiysi o‘rin olgan. Bu ruboiylar “Badoyi’u-l-bidoya” va “G‘aroyibu-s-sig‘ar” devonlariga ham kiritilgan. Ruboiylarning mazkur 3 ta devondagi joriylanishi quyidagi 2-jadvalda aks etgan.

“Ilk devon”dagi ruboiylarning boshqa rasmiy devonlarga joriylanishi

2-jadval.

Ruboiyning 1-misrasi	IDdagi tartib raqami	BBdagi tartib raqami	G‘Sdagi tartib raqami
Subhonallohi xoliqi z-ul-majdu alo	1	1	1
Ko‘k po‘yavu sayr ila talabgor sanga	2	2	2
Yo Rabki, inoyatingni yor ayla manga	3	3	3
Nomangki, tirikligimdin uldur matlub	4	7	11
Bir aybg‘a garchi xalq qilg‘ay mansub	5	9	13
Su ko‘zqusini bog‘ aro aylarda shitob	6	10	14
Gardun uza bazm uchun maqom ayladi tut	7	12	18
Chun xanjari hajring manga qat’ etti hayot	8	15	21

Bo'ldi mening o'lmagimga savdo bois	9	16	22
Ko'nglumni olibdur ul shahi sabzdavoij	10	17	23
Gul vaqti muyassar o'lsa gulfom qadah	11	19	25
Ruhung'aki maydin erdi har lahza futuh	12	20	26
Qo'rqutma meni tamug'din, ey zohidi yax	13	21	27
Ruxsori uza xollarin ul dilband	14	22	28
Ey sharbati la'ling obi hayvondin alaz	15	24	31
Budur tilagimki, ulki, ma'budung erur	16	25	32
Soqiy, badanimni notavon etti xumor	17	27	34
Har garmraveki, bo'lg'ay ul koshifi roz	18	30	44
Ul ko'zki, dame bo'lmadi sog', ey qorako'z	19	34	49
Jonbaxsh labing chashmayi hayvonmu emas?!	20	35	50
Mahbubqa e'timod qilmoq bo'lmas	21	37	52
G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish	22	39	55
Yo'q bodayi vasl, obi hayvon ul emish	23	41	57
Soqiy, meni xorxordin ayla xalos	24	43	60
Ber jomu ol, ey mug'bacha, jonimni evaz	25	44	61
Kim istasa saltanat, saxodur anga shart	26	45	62
Bu davrda yo'q sen kebi xushxon hofiz	27	46	63
Kim aylasa soqiyi gulandom tama',	28	47	64
Bir gul g'amidin dedim qo'yay bag'rima dog'	29	50	67
Nomang yetibon topti ko'ngul izzu sharaf	30	52	69
Yuz mehnatu g'am ko'ngluma yetkurdi firoq	31	54	71
Yo'q dahrda bir besaru somon mendek	32	57	77
Zohid, senga hur, manga jonona kerak	33	59	79
Gar dilbar emas malakvashu hurxisol	34	60	84
Turmay meni zoru notavon birla ko'ngul	35	62	86
Mug' dayri sari bugun tamanno qildim	36	65	92
Bahru kemadin ko'ngulda ko'ptur alamim	37	68	95
Dayr ichra tilab jomi hiloliy partav	38	76	107
Gar qilsa kishi qilib gunohe, tavba	39	77	109
Yo koshifi asrori nihon bo'lsa kishi	40	78	115
Oxir dami umr etsa shitob, ey soqiy	41	82	119

Jadval Alisher Navoiy devonlariga kiritilgan ruboiylarining yozilgan vaqti haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Undan ma'lum bo'lishicha, dastlabki uch ruboiy har uchala devonda ham dastlabki uch o'rinda joriylangan. Devon tartib qilish an'anasiga muvofiq har bir janr devonga alifbo tartibida va mavzu jihatidan hamd, na't, munojot ketma-ketligiga qat'iy amal qilingan holatda joylashtiriladi. Qayd etganimiz 3 ta ruboiy shoirning yigitlik davri (20-25 yosh) lirikasiga oid bo'lib, Alisher Navoiy "Badoyi'u-l-bidoya"ni, keyinchalik "G'aroyibu-s-sig'ar"ni tartiblayotganida o'sha yoshlikda yozilgan ruboiylardan foydalanib qo'ya qolgan. Ya'ni bu devonlar uchun maxsus (hamd, na't yoki munojat) ruboiy yozib o'tirmagan.

Ruboiylar g'azallardan farqli ravishda "Ilk devon"da qanday ketma-ketlikda tartiblangan bo'lsa, "Badoyi'u-l-bidoya"da ham, "G'aroyibu-s-sig'ar"da ham o'sha ketma-ketlikda ko'chirilgan. Shundan "Badoyi'u-l-bidoya"dagi ("Ilk devon"ga kirmagan) 44 ta ruboiy "Ilk devon" kitobat qilinganidan, "G'aroyibu-s-sig'ar"dagi ("Ilk devon"ga ham, "Badoyi'u-l-bidoya"ga ham kirmagan) 30 ta ruboiy "Badoyi'u-l-bidoya" tuzilganidan keyin yozilgani ma'lum bo'ladi.

Mulohaza yuritganimiz masala yuzasidan quyidagi xulosalarni bayon qilish mumkin:

1. Har qanday devon she'rlarining tartiblanishida muallif yoki kotibning maqsad-muddaosi birlamchi ahamiyatga ega bo'lgan. Bu omil, xususan, Alisher Navoiyning rasmiy devonlarida aniq namoyon bo'lgan.

2. “Ilk devon” kotib yoki kitob buyurtmachisining alohida mas’uliyati bilan yuzaga kelmagan yoki ularning ixtiyorida she’rlar yozma nusxada mavjud bo‘lmagan, matnlar yoddan ko‘chirilgan.

3. “Ilk devon”dagi she’rlar bilan boshqa devonlardagi ayni she’rlar matni orasida ko‘p va turli xil o‘zgarishlar bo‘lishiga qaramasdan, “Ilk devon” Alisher Navoiyning bolalik, o‘smirlik va yigitlik davri lirikasi to‘g‘risida ma’lumot beruvchi mo‘tabar manba sifatida qadr-qimmatini yo‘qotmaydi. Rasmiy devonlar bevosita shoirning o‘z nazaridan o‘tgan faktidan kelib chiqib, matnlardagi o‘zgarishlarning muvofiq yoki muvofiq emasligi borasida gap borganda rasmiy devonlarga ustunlik berish tarafdorimiz.

Iqtiboslar/Сноски/References

1. Алишер Навоий. Бадоеъ ул-васат. Мукаммал асарлар тўплами. Йигирма томлик, 5-том. –Тошкент: Фан, 1990. –Б. 509.
2. Абдуғафуров А. Қалб қаъридаги қадриятлар. – Т.: 1998.
3. Джабборов Р. Алишер Навоий “Оққўюнли мухлислар девони” ва унинг давр адабий муҳитида тутган ўрни: Филол. фан. бўйича фалс. докт... (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд: 2020. – 57 б.
4. Erkinov A. Хуросон демаким, Сжерозу Табриз... // Kitobda: Оққўюнли мухлислар девони. – Т., 2020. – 11 б.
5. Imomnazarov M. Olti devon muqoyasasi / “Alisher Navoiy va XXI asr”: xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Т.: Турон-икбол, 2021. – В. 60-80.
- 6.
7. Имомназаров М. Уч девон муқоясаси / “Alisher Navoiy va XXI asr”: xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Т.: Турон-икбол, 2018. – Б. 12-17.
8. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. – Тошкент: Фан, 1965. – 140 б.
9. Исҳоқов Ё. Алишер Навоийнинг илк лирикаси. –Тошкент: Фан, 1965. – 140 б.
10. Лутфий. Сенсан севарим. –Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 1987. – 64 б.
11. Мадалиева О. Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-киёсий тадқиқи (ЎЗР ФА Шарқшунослик институти фонди қўлёзмалари асосида): Филол. фан. бўйича фалс. докт... (PhD) дисс. автореф. –Тошкент: 2021. – 53 б.
12. Рамазонов Н. “Илк девон”даги расмий девонларга кирмаган ёки ўзгаришлар билан кирган мисра ва байтлар // Kitobda: Алишер Навоий. МАТ, Йигирма томлик, 20-том. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 377.
13. Рамазонов Н. Алишер Навоийда “таҳрирни таҳир” // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2006, 1-сон. – Б. 17-23
14. Салоҳий Д. Алишер Навоий поэтик услубининг тадрижий такомили (ғазаллар матнининг киёсий таҳлили асосида): Филол. фан. докт. ... дисс. – Тошкент: 2001. – 285 б.
15. Сулейманов Х. Текстологические исследование лирики Алишера Навои: Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – Ташкент: Инст. языка и литературы АН Руз, 1961. – 67 с.
16. Ҳайитметов А. Хазойин-ул маоний // Шарқ юлдузи. – Т., 1962. - №2.; Навоийнинг текстологик тадқиқотлари ва уларнинг тақдири ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 1965. - № 1.
17. Эркинов А. Навоийнинг мухлислари томонидан тузилган яна бир девони // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2012. - № 1. – Б. 8-16.
18. Юсупова Д. “Илк девон”дан “Оққўюнли мухлислар девони”га ўтган ғазаллар трансформацияси. / “Alisher Navoiy va XXI asr”: xalqaro ilmiy-nazariy anjumani materiallari. – Т.: Турон-икбол, 2018. – Б. 69-77.

ALISHER NAVOIY XALQARO JURNALI

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ АЛИШЕР НАВОИЙ
INTERNATIONAL JOURNAL ALISHER NAVOIY

“ALISHER NAVOIY” XALQARO JURNALINING AXBOROT XATI

“Alisher Navoiy” xalqaro jurnali O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Crossref.org tizimiga ham kiritiladi hamda har bir maqolaga DOI raqami beriladi.

MAQOLALARGA QO‘YILADIGAN TALABLAR:

- Maqola 10-15 sahifa hajmida taqdim etiladi;
- maqolalar o‘zbek, turk, tojik, rus, ingliz, fransuz tillarida qabul qilinadi;
- maqolaning tarkibiy tuzilishi IMRAD formatida rasmiylashtirilishi kerak;
- maqola Times News Roman shriftida, 12 kattalikda, 1 intervalda tayyorlanadi;
- havola(snokalar)lar katta qavsda muallif familiyasi – nashr sanasi – sahifasi [Mo‘minov 2020: 25] shaklida keltiriladi;
- maqola tomonlari chap: 2 sm, o‘ng: 2 sm, yuqori va quyi: 2 sm;
- maqolalar plagiatga qarshi tekshiriladi;
- jurnalning 1 ta sonida muallifning faqat 1 ta maqolasi chop etiladi.

MUROJAAT UCHUN MANZIL:
Tel.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

ИНФОРМАЦИОННОЕ ПИСЬМО МЕЖДУНАРОДНОГО ЖУРНАЛА “АЛИШЕР НАВОИЙ”

Международный журнал “Алишер Навоий” включен в список ВАК Республики Узбекистан. Он также будет включен в систему Crossref.org, и каждой статье будет присвоен номер DOI.

ТРЕБОВАНИЯ К ОФОРМЛЕНИЮ СТАТЕЙ:

- Объем статьи: около 10-15 страниц;
- статьи принимаются на узбекском, турецком, таджикском, русском, английском и французском языках;
- структура статьи должна быть оформлена в формате IMRAD;
- шрифт текста – Times New Roman; размер – 12 пунктов; межстрочный интервал – 1;
- сноски приводятся в квадратных скобках с указанием фамилии автора – года издания – страницы [Мўминов 2020: 25];
- параметры страницы: слева 2 см, справа 2 см, сверху и снизу по 2 см;
- статьи проверяются на плагиат;
- в одном номере журнала публикуется только 1 статья автора.

НАШИ КОНТАКТЫ:
Тел.: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru

“ALISHER NAVOIY” INTERNATIONAL JOURNAL INFORMATION LETTER

“Alisher Navoiy” International Journal is included in the list of HAC of the Republic of Uzbekistan. It will also be included in the Crossref.org system, and each article will be assigned a DOI number.

REQUIREMENTS FOR ARTICLES:

- The article should be presented in 10-15 pages;
- articles are accepted in Uzbek, Turkish, Tajik, Russian, English, French;
- the structure of the article should be in the IMRAD format.
- the article should be prepared in Times New Roman font, 12 sizes, 1 space;
- references are given in parentheses in the form of the author’s name – date of publication - page [Muminov 2020: 25];
- sides of the article left: 2 cm, right: 2 cm, top and bottom: 2 cm;
- articles will be checked against plagiarism.
- only 1 article by the author is published in 1 issue of the journal.

CONTACT ADDRESS:
Phone: +99891 527 68 22
Telegram ID: +998915276822
E-mail: alishernavoiy2020@mail.ru